



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-sentabr*



FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 4 123,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 83,0 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 344,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,8 %), qishloq aholisi soni 1 779,6 ming kishi (43,2 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4 123,6 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

(+) 63,8 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar


**56,8%**

Qishloq

**43,2%**

Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-sentabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- oktabr holatiga




2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,6 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,1 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 12,3 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi
2024- yil 1- yanvar holatiga


2024- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi
2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,7 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,9 yoshga, ayollar uchun esa 77,5 yoshga teng. Shahar joylar 75,2 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 76,4 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2024- yil 1- oktabr holatiga

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi
2024- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 040,3	4 123,6	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	320,1	326,9	102,1
Qo'qon	307,8	312,9	101,7
Quvasoy	100,7	102,7	102,0
Marg'ilon	250,0	256,9	102,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	227,2	231,9	102,1
Qo'shtepa	207,7	212,1	102,1
Bag'dod	231,7	236,9	102,2
Buvayda	245,9	251,4	102,2
Beshariq	241,5	245,9	101,8
Quva	274,4	279,4	101,8
Uchko'prik	240,4	245,7	102,2
Rishton	215,7	220,0	102,0
So'x	83,2	85,4	102,6
Toshloq	217,9	220,8	101,3
O'zbekiston	234,0	239,3	102,3
Farg'ona	220,3	224,8	102,0
Dang'ara	176,1	180,1	102,3
Furqat	126,5	129,0	102,0
Yozyovon	119,2	121,5	101,9

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 610,1 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,3 kishiga ortgan (2023- yil 1- oktabrda 1 kv.km.ga 597,8 kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 4 938,5 kishi, Qo'qon shahrida 4 863,2 kishi, Farg'ona shahrida 3 022,4 kishi, Toshloq tumanida 910,0 kishi, Buvayda tumanida 901,0 kishi, Uchko'prik tumanida 906,2 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 298,5 kishi, Beshariq tumanida 317,8 kishi, O'zbekiston tumanida 355,1 kishi, Oltiariq tumanida 367,6 kishi, Farg'ona tumanida 378,4 kishini tashkil etgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2024- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Hududlar kesimida tugilish soni va promille

2024- yil yanvar-sentabr




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 77,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,3 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 26,6 promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va promille


2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 13,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 4,6 promilleni tashkil etgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- sentabr, kishi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 60,6 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,6 %i – o'simtalardan, 5,4 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,6 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan 0,9 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 12,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va promille

2024- yil yanvar-sentabr, birlik




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 19,3 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 6,8 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va promille

2024- yil yanvar-sentabr, birlik



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 3,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 1,5 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 9 888 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 11 568 kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus 1 680 kishini tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2024- yil yanvar-sentabr, kishi


	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	9 888	11 568
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	3 289	2 089
Qo'qon sh.	1 375	1 267
Quvasoy sh.	373	316
Marg'ilon sh.	540	1 272
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	178	372
Qo'shtepa t.	642	490
Bag'dod t.	78	325
Buvayda t.	201	332
Beshariq t.	124	534
Quva t.	302	566
Uchko'prik t.	137	447
Rishton t.	174	454
So'x t.	491	129
Toshloq t.	384	540
O'zbekiston t.	203	717
Farg'ona t.	668	756
Dang'ara t.	337	469
Furqat t.	262	298
Yozyovon t.	130	195

JAMI KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlar soni va promille

2024- yil yanvar- sentabr, kishi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 9,8 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 3,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,9 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 2,3 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va promille

2024- yil yanvar- sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 11,6 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 3,8 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,8 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 3,0 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 73 241-97-74